

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./HKEW7923>
UDC: 343.1(042)(575.1)

JINOYAT ISHI QO'ZG'ATISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISHDA SHAXSLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMoya QILISHNING AYRIM JIHATLARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'lidan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan
ORCID: 0000-0003-39-53-3800
e-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda javobgarlikdan ozod etishning protsessual tartibi – ish yuritishni rad etish va tugatish qarorlari ustidan shikoyat qilishda vujudga kelayotgan muammolar va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari, qaror ustidan sudga murojaat qilish huquqining afzalliklari tадqiq etilgan. Maqolada mazkur qarorlar ustidan shikoyat qilishning protsessual tartibi yuzasidan amaliyot tahlili, mavjud muammolar va ularning yechimiga oid yetakchi ilmiy tashkilotlarning xulosalari tahlil qilingan. Shuningdek, ish yuritishni rad etish va tugatish qarorlarini qayd etish, ularning huquqiy oqibatlari bo'yicha salbiy holatlar o'rganilgan hamda statistik hisoblar va mazkur institut bilan bog'liq boshqa muammolar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, maqolada jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va tugatishda protsessual xarajatlar hamda mazkur qarorlarni rasmiylashtirishda mavjud huquqiy bo'shliq va kolлизия holatlar yuzasidan fikrlar bildirilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar, tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan. Buning natijasi o'larоq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protcessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjalariга tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ish yuritishni rad etish, jinoyat ishini tugatish, statistik kartochkalar, sud, moddiy zarar, protsessual xarajatlar.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ ЛИЦ ПРИ ОТКАЗЕ В ВОЗБУЖДЕНИИ ИЛИ ПРЕКРАЩЕНИИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,
докторант факультета послевузовского образования
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, капитан

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессуальная процедура освобождения от ответственности на сегодняшний день – проблемы, возникающие при подаче жалобы на решение об отказе и прекращении производства по делу, а также аспекты правового регулирования этих вопросов и преимущества права обжаловать решение в суде. В статье приводится анализ практики по процедурному порядку обжалования этих решений, анализируются существующие проблемы и выводы ведущих научных организаций по их решению. В статье также изучались негативная практика отказа и прекращения производства по делу, ее правовые последствия, даны статистические расчеты, выявлены

другие проблемы, связанные с этим институтом. В то же время в статье высказаны мнения о процессуальных издержках при отказе и прекращении возбуждения уголовного дела, существующих правовых лазейках и обстоятельствах сговора при оформлении этих решений. В ходе исследовательской работы был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные акты.

Ключевые слова: отказ в возбуждении дела, прекращение уголовного дела, статистические карточки, суд, материальный ущерб, процессуальные издержки.

SOME ASPECTS OF PROTECTING THE RIGHTS AND INTERESTS OF PERSONS IN CASE OF REFUSAL TO INITIATE OR TERMINATE A CRIMINAL CASE

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Doctoral student of the Faculty of Postgraduate Education,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. This article discusses the procedural system for exoneration from liability today – the problems that arise when filing a complaint against the decision to refuse and terminate proceedings in the case, as well as aspects of legal regulation of these issues, the advantages of the right to appeal the decision in court. The article provides an analysis of the practice of the procedural system for appealing these decisions and analyzes the existing problems and conclusions of leading scientific organizations on their solution. The article also studied negative cases of refusal and termination of proceedings, their legal consequences, as well as studied statistical calculations and other problems associated with this institution. At the same time, the article expressed opinions on the procedural costs of refusing and terminating the initiation of a criminal case, as well as on the existing legal loopholes and circumstances of collusion in the execution of these decisions. During the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedural Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative acts.

Keywords: refusal to initiate a case, termination of a criminal case, statistical cards, court, material damage, procedural costs.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi, xususan, ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatish institutini rivojlanadirish zarurati ushbu islohotlarning alohida muhim qismini tashkil etmoqda.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishning boshqa subyektlariga nisbatan qo'llaniluvchi rad etish yoki tugatishdan eng farqli jihatni harbiy xizmatchilarga nisbatan mazkur asoslarning JPKning 345-moddasi

3-qismiga ko'ra, faqatgina harbiy prokuratura idoralari tomonidan amalga oshirilishidir. Jinoyat-protsessual qonunchilikda harbiy xizmatchilarga nisbatan tergovga qadar tekshiruv vaqtida ish yuritishni rad etish bo'yicha boshqa vakolat berilgan mansabdor shaxslar ham mavjud, biroq amaliyotda bunday vakolat berilgan (harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlari boshliqlari) mansabdor shaxslar tomonidan ayblilik masalasini hal etmay turib, ish yuritish rad etilgan holatlari deyarli uchramaydi.

Material va metodlar

Yuqorida keltirilgan holat, albatta, harbiy prokuratura idoralarining mutlaq vakolati doirasida hal etilishi, fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning protsessual huquqlarini cheklaydi. Chunonchi, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishi bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish qarorlari ustidan shikoyat qilish kelgusida harbiy prokurorga berilishi mumkin xolos. Bu esa ko'p hollarda mazkur qarolarning bekor bo'lmasdan o'z kuchida qolishiga olib kelmoqda. Tadqiqot ishida ish yuritishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish qarorlari ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Harbiy bo'lмаган ish yuritish shakli-da ham mazkur masala to'liq o'z yechimini topgan deb bo'lmaydi. Jumladan, amalda-gi JPKning 338-, 382-moddalariga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qabul qilingan ish yuritishni rad etish yoki tu-gatish qarorlari ustidan nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hollarda prokuror qabul qilingan qarorni bekor qiladi va qo'shimcha tergovga qadar tekshiruv yoki qo'shimcha tergov ishlari tashkil etilishini belgilaydi. Ma'lumki, prokuratura idoralari ham tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari hisoblanadi ham-da mazkur yo'naliishlarda protsessual vako-latlari mavjud. Mazkur organlar tomonidan qabul qilingan qarolarning esa faqatgina prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror tomonidan nazorat qilinishi, fikrimizcha, no-to'g'ridir. Negaki bunda o'ziga nisbatan qaror qabul qilinayotgan ushbu shaxslarning huquqlari qayta-qayta cheklanishi mumkin.

Masalan, Toshkent shahar IIBB Ter-gov boshqarmasi ish yurituvida "NAVOI CORPORATION" MChJ ta'sischisiga nisbatan JKning 228-moddasi bilan Chilonzor tuma-

ni prokuraturasi tomonidan qo'zg'atilgan 32/19-1227-sonli jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra, jinoyat ishi 2019-yil 12-aprel-da qo'zg'atilgan bo'lib, oradan deyarli 3 yil o'tgan bo'lsa-da, haligacha hech qanday yakuniy qaror qabul qilinmagan. Hujjat sox-talashtirish holatining o'zi 2006-yilda sodir etilgani (16 yil o'tgan) uchun tergovchilar tomonidan jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi asosi bilan jinoyat ishi bir necha bor tugatilgan. Shuningdek, prokuratu-ra organlari tomonidan jinoyat ishi bir necha bor qayta tiklangan.

Mazkur jinoyat ishi jami 7 marotaba tu-gatilishi bo'yicha qaror qabul qilingan va bar-cha qarorlar Toshkent shahri prokuraturalari tomonidan bekor qilingan [1].

Yuqoridagi jinoyat ishi JPKda jinoyat ishini tugatish va qayta boshlash chegarasi belgi-lanmaganligi sababli bir necha marotaba tu-gatilgan bo'lsa-da, qayta tiklanib, qo'shimcha tergovga qaytarilgan. Bu borada olimlar quy-idagi fikrlarni bildirganlar.

Y.V. Kolomees [2, 186-189-b.], K.A. Tabo-lina [3, 229-230-b.], I.R. Astanov [4, 8-12-b.], S. Li [5, 141-150-b.], J.Zila [6, 90-93-b.] va V.M. Bikovlarning [7, 30-34-b.] fikriga ko'ra, jinoyat ishini tugatish borasidagi qonuniy-likni nazorat qilish prokuror zimmasi-daligi sababli qarorning qayta-qayta bekor bo'lishining oldini olish uchun prokurorning ushbu qarorni qabul qilishga rozilik berishi mazkur masalani hal etadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi. Ular bergen taklifning qonun-chilikda aks etishi jinoyat ishlarni tugatishning bugungi holatidan deyarli o'zgarishsiz qolishiga olib keladi. Ya'ni bunda qarorga rozilik bergen prokurorning mazkur qaror bo'yicha yuqori turuvchi prokuror tomonidan bekor qilingan holatlari ham amaliyotda ko'plab uchraydi. Yuqorida keltirilgan holat bunga yorqin misoldir.

Bu borada Makkevit [8, 122-b.], J. Ross, S. Taman [9, 576-b.], A.A. Haydarov va N.S. Didenkolarning [10, 336-b.] fikrlari e'ti-

borga molik. Ularning ta'kidlashicha, mazkur ish yuritishni rad etish yoki tugatish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilishda so'nggi nuqtani sudlar qo'yishi lozim.

Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda shuni e'tirof etish lozimki, bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan sudlarga nisbatan ishonch tobora ortmoqda. Qolaversa, so'nggi yillarda mamlakatimizda sud himoyasida bo'lish, ya'ni ishni sudga qadar yuritish bosqichida har bir shaxsning o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishini kafolatlash, "Habeas korpus" institutini amalda qo'llashni kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish sohasida islohotlar o'tkazilmoqda.

B.A. Saidov ham "Habeas korpus" institutini yanada kengroq qo'llash maqsadida jinoyat-protsessual munosabatlarda protsess ishtirokchilari tomonidan tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning jinoyat ishi qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish, taftish tayinlash, surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatish, jinoyat ishini tugatish hamda boshqa tergov va protsessual harakatlarni o'tkazishda qonunni har qanday tarzda buzish, shuningdek, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi holatlar ustidan bevosita sudga shikoyat qilish imkoniyatini kafolatlovchi normalarni jinoyat-protsessual qonunchilikda aks ettirish zarurligini ta'kidlaydi [11, 7-8-b.].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bugungi kunda jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashda sud nazoratini kuchaytirish va nafaqat ish yuritishni rad etish yoki tugatish borasidagi qarorlar, balki surishtiruv va dastlabki tergov organlarining boshqa qarorları ustidan sudga shikoyat qilish tartibini belgilash zarurati yuzaga kelganligini asoslaydi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xat-

ti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilangan [12].

Shuningdek, yuqoridagi masalalar yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqishda faqat prokurorning vakolatli ekanligi dastlabki tergovni yuritishda obyektivlik va shaffoflikni ta'minlay olmaydi.

Xorijiy davlatlarda, xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat protsessual kodeksining 125-moddasiga (Shikoyatni sud tartibida ko'rib chiqish) ko'ra, tuman sudlari vakolatli organlarning jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Sud shikoyatni 5 kun muddat ichida ko'rib chiqadi va chiqarilgan qarolarning qonuniy va asosli ekanligini tekshiradi [13].

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 106-moddasiga (jinoiy ta'qib organlari, prokuror qarorlari va harakat (harakatsizlik)lari ustidan keltirilgan shikoyatlarni sud tartibida ko'rib chiqish) ko'ra, shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi tegishli organlarning qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishlari mumkin. Shaxs tegishli organning qarori yoki prokurorning shikoyatni qanoatlantirishni rad etganligi to'g'risidagi qarorini olgan kundan boshlab 15 kunlik muddat ichida tegishli tuman sudiga shikoyat qilish huquqiga ega [14].

Moldova Respublikasi JPKning 8-bobida "Sudgacha bo'lgan protsessual harakatlar ustidan sud nazorati" [15], Armaniston Respublikasi JPKning 39-bobida "Sud ish yurituviga qadar sud nazorati" [16], Ozarbayjon Respublikasi JPKning LII bobida "Sud nazoratini amalga oshirish" [17] va boshqa davlatlarning JPKda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi tegishli organlarning qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish mumkinligi belgilangan.

Finlandiyada jinoyat protsessual qonunchiligi kodekslashtirilmagan bo'lsa-da, mazkur munosabatlarni bir necha qonunlar o'z ichiga oladi va jinoyat protsessual qonunlar-

ning 1-bobi 9(a)-moddasiga ko'ra, prokuror ushbu qonunning 7- yoki 8-moddasidagi asoslarga tayangan holda, ustidan dastlabki tergov amalga oshirilayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilsa, qarorni ko'rib chiqishi uchun sudga topshiradi [18].

Xulosa o'rnila quyidagilarni taklif sifatida ilgari surish va mazkur takliflarni jinoyat-protsessual qonunchilikda mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Jumladan, jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergovni to'xtatish, jinoyat ishlari tugatish haqidagi qaror ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyat sudga qadar ish yuritilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuror orqali jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi yoki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazilgan joydagi hududiy harbiy sudga beriladi. Shikoyatni olgan prokuror shikoyat qilinayotgan qarorni bekor qilish yoxud uni tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishi materiallari bilan birga 3 kunlik muddatda sudga yuborishga haqiladi.

Shikoyat uni berish huquqiga ega bo'lma-gan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa yoki ushbu sudda ko'rib chiqilishi lozim bo'lmasa, sud tomonidan qaytarilib, bu haqda ajrim chiqariladi. Shikoyat sudga kelib tushgan kundan e'tiboran 5 kunlik muddatda sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Sud majlisida shikoyat bergen shaxs, uning himoyachisi (advokati), vakili, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdar shaxsining vakili, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ishtirot etishi mumkin.

Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud shikoyatni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida, ustidan shikoyat berilgan qarorni bekor qilish haqida ajrim chiqaradi. Sud ajrimining nusxasi shikoyat bergen shaxs va prokurorga 3 kunlik muddatda yuboriladi. Bunda sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat, prokuror tomonidan esa apellyatsi-

ya tartibida taqdimnomalar berilishi mumkin. Ular apellyatsiya instansiysi sudi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov organi yoxud prokurorning qarorini bekor qilish to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqarilishi va ushbu ajrimning qonuniy kuchga kiri-shi aynan bekor qilingan qarorda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha takroran qaror qabul qilinishini istisno etadi. Ushbu ajrim uning ustidan xususiy shikoyat yoki taqdimnomalar kiritishning kodeksda belgilangan muddati tugagan kundan boshlab qonuniy kuchga kirdi.

Ma'lumki, jinoiy-huquqiy statistika tizimi ni takomillashtirish, jinoyatlar hisobini yuritishning shaffofligini ta'minlash, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablarini maqsadli tahlil qilish yo'li bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida 2018-yil 31-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoiy-huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5566-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda statistik kartochkalarining elektron shakllarini tuzish orqali jinoyat ishlari, tergovga qadar tekshiruv materiallari, sud muhokamalari hamda sud qarorlari ijrosi natijalari, shuningdek, ayblanuvchi va jabrlanuvchi tariqasida jalb etilgan ishtirotchilar bo'yicha ma'lumotlarning yagona hisobini yuritish, prokuratura, sud va boshqa davlat organlari o'rtasida dastlabki tergov va surishtiruv organlarining elektron ma'lumot al mashuv shakli, shu jumladan, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish yo'li bilan joriy etish hamda jinoiy-huquqiy statistikani yuritish tartib-taomillarini optimallashtirish va uni shakllantirish jarayonida inson omilini istisno etish nazarda tutilgan edi.

Yuqoridagi farmon va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-martdag'i "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jino-

yatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlар organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni talablari ga asosan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlар vazirligi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan nizomning 3-bobi aniqlangan yoki sodir etilgan jinoyatni hisobga olish yagona elektron statistik kartochkalarini to'ldirish va taqdim etish tartibida aynan jinoyat ishi qo'zg'atilganda yoki JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan ish qo'zg'atish rad qilinganda, yagona elektron jurnaldan tartib bo'yicha elektron tarzda raqam berilishi va shu bilan birga, barcha turdagи statistik kartochkalar (Shakl-1, 1.1, 2, 3, 4) to'ldirilishi belgilab qo'yilgan [19].

Bu borada olimlar o'zgacharoq fikrda, ya'ni B. Murodov "JPKning ushbu moddasi da nazarda tutilgan tartibda jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilganda, qilmish jinoyat sifatida ro'yxatdan o'tkazilmasligi lozim. Ya'ni mazkur holatda "Shakl-1" kartochkasi to'ldirilib, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'rnatilgan tartibda Axborot Markazi ro'yxatiga kiritilishi noto'g'ri" [20, 99-100-b.], deb ta'kidlaydi.

Buni bir guruh olimlar aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi talablaridan kelib chiq-qan holda xato ekanligini ta'kidlaydilar. Ya'ni bunda shaxsni sudning qonuniy kuchga kirgan aylov hukmi bo'lmanligi sababli rasman "aybdor" deb hisoblab bo'lmasligi, ularni ro'yxatga olib, ularga nisbatan profilaktik ta'sir choralarini qo'llash mumkin emasligi, JKning 4-moddasiga muvofiq, sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanishini inobatga olib, JPKning 325-moddasi bo'yicha javobgarlikdan ozod bo'lgan shaxslarni muqaddam sudlangan shaxslar bilan tenglashtirish

barcha prinsiplarga zid ekanligini e'tirof etishgan.

Yuqoridaq olimlarning fikrlari o'rini, biroq JKda nazarda tutilgan jinoyat alomatlari ning barchasi mayjud bo'lgani holda, mazkur holatlarni jinoyat sifatida ro'yxatga olmaslik ham, bizningcha, noto'g'ridir. Albatta, JKning 4-moddasiga muvofiq, sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanishi lozim. Bu, o'z navbatida, xususiy aylov institutini ham moddiy norma sifatida javobgarlikdan ozod qiluvchi turi sifatida JKda qayd etish zarurligini taqozo qiladi.

Shu sababli JPKning mazkur asosiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishda uni jinoyat sifatida ro'yxatga qo'yish lozim. Zero, bunda JKda nazarda tutilgan jinoyat belgilari to'liq aniqlanadi. Faqatgina mazkur shaxslar sudlangan shaxslar bilan tenglashtirilgan ro'yxatda bo'lmasligi va yagona interaktiv portal orqali so'rov natijasiga ko'ra qayd etilmasligi kerak, ya'ni bunda mazkur statistika umumiylar jinoyatchilikni qayd etish, unga qarshi kurashish va tezkor-tergov faoliyatda foydalanimishi zarur, biroq mazkur qaydlar fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarida saqlanishi mutlaqo noto'g'ri. Shu bilan birga, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 8-bandiga ko'ra, ish yuritish rad etilgan yoki tugatilgan hollarda, ularga nisbatan statistik kartochkalarni to'ldirish va hisobga qo'yish noo'rindir.

Shuningdek, ro'yxatga olingan mazkur shaxslarga nisbatan profilaktik ta'sir choralarini qo'llash mumkin emasligi yuzasidan bildirilgan fikrlarga qo'shilamiz va 2014-yil 14-may kungi O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli Qonuni 35-moddasida nazarda tutilgan "O'ziga nisbatan profilaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar" ro'yxatidan "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq, aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib, o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud reabilitatsiya qilmaydigan

asoslari bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga" jumlalarini chiqarib tashlash lozim, degan fikrdamiz. Sababi mazkur qism, eng avvalo, yuqorida ta'kidlangan barcha rahbariy qoidalarga zid ekanligi bilan bir qatorda, normadagi "reabilitatsiya qilmaydigan asoslari bo'yicha" kabi JPKda belgilanmagan asosning qo'llanishida mavhumliklarni bartaraf etadi.

Bundan tashqari, mazkur asosni hisobga olishda respublikamiz hududlarida turli xildagi amaliyot shakllanganligi ham mavjud muammolardan sanaladi. Bundan bir qancha vaqt ilgari ba'zi hududlarda JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandiga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilganda, jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergovda qaysi statistik kartochalar to'ldirilsa, barcha kartochkalar to'liq to'ldirilgan holda, axborot markazlariga taqdim etilgan bo'lsa, ba'zi hududlarda mazkur asosga ko'ra ish yuritish rad etilganda, hech qanday statistik kartochkalar to'ldirilmasdan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari arxivga topshirilgan. Shu sababdan ham amaliyotchilar orasida ish qo'zg'atilgandan so'ng jinoyat ishi doirasida mazkur asos bilan jinoyat ishini tugatish mumkin emas, degan asossiz qarashlar mavjud edi.

Yuqoridagi kabi turli xillikning yana bir ko'rinnagan asosiy muammolaridan biri - bu tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov amaliyoti mavjud tizimlarda yagona arxiv ishining tashkil etilmaganligidir.

O'zbekiston Respublikasi IIV, Bosh prokuraturasi, DXX, DBQ, MG, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-sonli qo'shma qarori 1-ilovasi "Elektron jinoiy - huquqiy statistika" yagona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomning 34-bandiga muvofiq, Tergovga qadar tekshiruv natijasida jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilinganda yoki jinoyat ishi tugatilganda, 1.1-shakli statistik kartochkasi ro'yxatga olinganda hamda prokuror tomonidan qabul qilingan qarorning qonuniyligi

yuzasidan xulosa qilinganidan so'ng jinoyat ishlari va tergovga qadar tekshiruv materialari surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni olib borgan organlar va sudlarning o'zida belgilangan tartibda saqlanishi mustahkamlangan [21].

Bu borada O'zbekiston Respublikasi IIV-da tugatilgan jinoyat ishlari toifalariga qarab 25 yilgacha, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishga oid hujjatlar qaysi asoslarda ish yuritilishi rad etilishidan qat'i nazar, atigi 3 yil mobaynida saqlanishi belgilab qo'yilgan bo'lsa, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va harbiy sudlarda mazmunan hal etilgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari va jinoyat ishlari, toifalari ro'yxat asosida ularning JIB va harbiy sudlarning arxivida saqlash muddatidan tugaganidan so'ng "O'zbekiston Respublikasi da arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, hududiy arxivlarga yuborilishi belgilangan.

Biroq mazkur masalaning turli organlarda turlicha hal etilishi bu borada turli xil amaliyot shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, statistik kartochkalar orqali qayd qilinayotgan jinoyat sodir etgan shaxs va jinoyat ishi ma'lumotlari mavjud asosning yo'qolishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlardan shunday xulosa qilishimiz mumkin, ya'ni O'zbekiston Respublikasi IIV, Bosh prokuraturasi, DXX, DBQ, MG, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-son qaroriga muvofiq, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan, ish qo'zg'atish rad qilinganda, barcha turdagli statistik kartochkalar mazkur tergovga qadar tekshiruv hujjatiga jinoyat ishi raqami berilgan holda amalga oshiriladi va shaxsga nisbatan axborot markazining ma'lumotlar bazasida muqaddam sudlangan shaxs singari jinoyat sodir etgan shaxs sifatidagi mazkur yozuv bir umrga saqlanib qolsa-da, biroq mazkur hisobning asosi hisoblangan tergovga

qadar tekshiruv hujjatlari atigi 3 yil muddat mobaynida saqlanishi, fikrimizcha, mutlaqo noto'g'ridir. Chunki amaliyotda bu kabi holatlar tez-tez kuzatiladi, ya'ni ba'zi shaxslar o'zlarining jinoiy javobgarlikka tortilganligi yoki jinoiy javobgarlikdan ayblilik to'g'risidagi masala hal etilmasdan ozod qilinganligi to'g'risida ular biror korxona yoki muassasaga ishga joylashish bilan bog'liq hujjatlarni toplash jarayonida xabardor bo'lislari va bu holatdan norozi bo'lgan holda davlat idoralariga ariza bilan murojaat qilish hollari uchraydi.

Bugungi kunda ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatishda shaxslar mazkur asoslarga ko'ra ish hal etilganligi mazmunini to'liq anglab yetmaydilar. Bu esa, o'z navbatida, o'zini aybsiz hisoblagan shaxslarga nisbatan mazkur asoslarga ko'ra ish yuritish rad etilishi yoki tugatilishi natijasida ish bo'yicha haqiqiy aybdorlar javobgarlikdan qutulib qolishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

B. Murodovning fikricha, mazkur asoslarga ko'ra ish tugatilishiga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsga ish tugatilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatni tushuntirishi majburiyati yuklanishi mazkur muammoni hal etishi mumkin [21].

I.S. Tarasov [22, 12-b.] va D.V. Sinyovlar [23, 11-b.] mazkur yuridik muammo himoya-chi ishtirokining majburiy qilib belgilanishi orqali hal etilishi mumkinligini e'tirof etadilar. Ya'ni ular JPKning 84-moddasiga asosan, ish yuritishi rad etilgan yoki tugatilayotganda, shaxsga mazkur e'lon qilingan qaror qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini uning himoyachisi ishtirokida amalga oshirilishi lozimligini bildirishgan.

Olimlarning mazkur fikrlari o'rini ekanligini e'tirof etgan holda himoyachini mazkur asoslarga ko'ra ish yuritishi rad etilgan yoki tugatilishi to'g'risidagi ishlar nafaqat mazkur shaxslarning qabul qilingan qarorlarning huquqiy oqibatlarini to'liq anglashlari, balki ish tugatilish asoslari shartlarini to'liq bajargan hollarda mansabdor shaxslarning

umumiyl tartibda ish yuritilishining ham oldi olinishiga erishiladi, degan fikrdamiz. Ba'zi olimlar himoyachi ishtirokining majburiy tartibda belgilanishi mazkur asoslar qo'llanishi borasida muammolarning to'la hal etilmasligi va protsessual qoidalarga, agar shaxs ishning umumiyl tartibda yuritilishini talab qilgan hollarda unga nisbatan ozodlikni cheklash bilan bog'liq ehtiyyot choralarini qo'llamaslik shartini kiritish lozimligini bildirganlar [24].

Yuqoridagilarga xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shaxslarning jinoiy qilishi bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda himoyachi ishtirokini ta'minlash harbiy xizmatchilarning har tomonlama huquq va manfaatlari hamda uning kelgusida xizmatni davom ettirishi borasidagi huquqlari ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida ish yuritishni rad etish va tugatishga oid protsessual muammolarning tahlili quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi.

Birinchidan, yuqoridagi loyihibiy takliflar, harbiy va harbiy bo'limgan ish yuritish shaklida, ishni rad qilish yoki tugatish to'g'risidagi qarorlar yuzasidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatining sudsiga berilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida quyidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin:

- manfaatdor shaxslarda ish yuritishni rad qilish yoki tugatish to'g'risidagi qaror yuzasidan prokuraturadan tashqari boshqa vakolatli davlat organiga murojaat qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

- surishtiruv va tergov faoliyatidagi ishni qo'zg'atishni rad qilish hamda jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq masalalarni faqat bir organ tomonidan hal etish amaliyoti tugatiladi;

- jinoyat ishlarining qonuniy va adolatli ko'rib chiqilishi ta'minlanadi.

Surishtiruv va dastlabki tergovda sud nazoratini kengaytirish maqsadida Jinoyat protsessual kodeksiga surishtiruv va dastlabki tergov organlarining qarorlari ustidan shikoyatlarni sud orqali ko'rib chiqish tartibini kiritish taklif etiladi.

Ikkinchidan, JPK 84-moddasining ayrim asoslariga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatishda uni jinoyat si-fatida ro'yxatga qo'yish lozim, zero, bunda JKda nazarda tutilgan jinoyat belgilari to'liq aniqlanadi. Faqatgina mazkur shaxslar sudlangan shaxslar bilan tenglashtirilgan ro'yxatda bo'lmasligi va yagona interaktiv portal orqali so'rov natijasiga ko'ra qayd etilmasligi lozim. Mazkur statistika umumiyligi jinoyatchilikni qayd etish, unga qarshi kurashish va tezkor tergov faoliyatida foydalanilishi zarur, biroq mazkur qaydlar fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarida saqlanishi mutlaqo noo'rin.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydag'i "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli qonuni 35-moddasida O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasiga asosan, ish yuritilishi rad etilgan yoki tugatilgan shaxslarga nisbatan profilaktik hisob yuritilishi mazkur shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklaganligi bois mazkur bandni chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan, ish qo'zg'atish rad qilingan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari 3 yil muddat mobaynida saqlanishi noto'g'ri. Barcha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud idoralarida yagona jinoyat ishlari va tergovga qadar tekshiruv hujjatlari hamda ularni ro'yxatga olish kitoblarini saqlash arxiv ishlarini tashkil etish bo'yicha yagona ish yurituvi idoralararo qo'shma qaror qabul qilish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, manfaatdor shaxslarga jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror yuzasidan sudga shikoyat qilish imkoniyatining berilishi ushbu ish yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshirishga mas'ul shaxslarning jinoyat ishini qo'zg'atish yoki jinoyat ishini tugatish masalasidan o'z manfaati yo'lida foydalanish imkoniyatiga barham beradi. Chunki ishlarning adolatli va asosli tugatilishi sud tomonidan nazoratga olinadi.

REFERENCES

1. Tursunboyev T. Ishlamaydigan qonunlar bilan adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi yoxud advokatlarga oson emasligi haqida uzun hikoya [A fair society cannot be built with broken laws, a long story about lawyers having a hard time]. Available at: <https://kun.uz/news/2022/03/26/>.
2. Kolomeec E.V. Soglasovaniye prokurorom processual'nykh resheniy organov rassledovaniya o prekrashchenii ugolovnykh del [Approval by the prosecutor of the procedural decisions of the investigation bodies on the termination of criminal cases]. *Vestnik of Omsk University. Law Series*, 2018, no. 3 (56), pp. 186–189. DOI: 10.25513/1990-5173.2018.3.186-189/.
3. Tabolina K.A. Nadzor prokurora za vozbuздeniyem i rassledovaniyem ugolovnykh del [Supervision of the prosecutor over the initiation and investigation of criminal cases]. PhD thesis. Moscow, 2016, pp. 229–230.
4. Astanov I.R. General characteristics and problems of expertise in a criminal trial in Uzbekistan. *International Journal of Advanced Research*, 2016, vol. 4, iss. 1-8, pp. 1–8.
5. Lee S.W. The politics of prosecution service reform in new presidential democracies: The South Korea and Russia cases in comparative perspective. *Journal of Eurasian Studies*, 2016, vol. 7 (2), 2016, pp. 141–150. DOI: 10.1016/j.euras.2015.09.001/.

6. Zila J. The Prosecution Service Function within the Swedish Criminal Justice System. Coping with Overloaded Criminal Justice Systems, Springer, Berlin, Heidelberg. 2006. DOI: 10.1007/978-3-540-33963-2_9/.
7. Bykov V.M. Pravovoye polozheniye prokurora na dosudebnykh stadiyakh ugolovnogo sudoproizvodstva [The legal position of the prosecutor at the pre-trial stages of criminal proceedings]. *Rossijskaja justicija – Russian Justice*, 2016, no. 11, pp. 30–34.
8. Michael McKevitt v. DPP, Supreme Court. Michael McKevitt v. DPP, Unreported, Supreme Court, 2003, March 18, 122 p.
9. Ross J.E., Thaman S.C. Comparative criminal procedure. Edward Elgar Publ., 2016, 576 p.
10. Haydarov A.A., Didenko N.S. Prinyatiye sudom protsessual'nogo resheniya ob otkaze v udovletvorenii hodataystva sledovatelya o prekrashchenii ugolovnogo dela (ugolovnogo presledovaniya) [Adoption by the court of a procedural decision on refusal to satisfy the investigator's petition to terminate the criminal case (criminal prosecution)]. *Criminal Procedural Law and Criminalistics*, 2018.
11. Saidov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlanishini takomillashtirish [Improving the provision of constitutional rights and freedoms of a person in the proceedings before the court]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2020, pp. 7–8.
12. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat Publ., 1992.
13. The Criminal Procedural Code of the Russian Federation. 2001, December 18. Available at: <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody=&nd=102073942/>.
14. Criminal Procedural Code of the Republic of Kazakhstan, with amendments and additions as of 09.07.2022. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575852&sub_id=0&pos=4;-111#pos=4;-111/.
15. Criminal Procedural Code of the Republic of Moldova. 2003, March 14, No. 122-XV. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=6;-142/.
16. Criminal Procedural Code of the Republic of Armenia. 1998, September 1, No. ZR-248.
17. Criminal Procedural Code of the Republic of Azerbaijan. Approved by the Law of the Republic of Azerbaijan No. 907-IQ dated July 14, 2000. Article 39.
18. Criminal Procedure Act. No. 689/1997, amendments up to 733/2015 included. Ministry of Justice, Finland. Available at: [https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1997/en19970689.pdf/](https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1997/en19970689.pdf).
19. Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, General Prosecutor's Office, State Security Service, State Customs Committee, National Guard, Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated November 15, 2021, No. 70, No. 71, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-Appendix 1 to the decision of the number regulation on the procedure for maintaining a unified Information System "Electronic criminal law statistics".
20. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyat [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, pp. 99–100.
21. Tarasov I.S. Prekrashcheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushchim osnovaniyam [Termination of the criminal case and criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. PhD thesis. Nizhny Novgorod, Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2007, p. 12.
22. Sinzhov D.V. Prekrashcheniye ugolovnykh del po nereabilitiruyushchim osnovaniyam na predvaritel'nom sledstvii [Termination of criminal cases on non-rehabilitating grounds at the preliminary investigation]. Abstract of PhD thesis. Almaty, 2003, p. 11.
23. Saitbayev T.R., Zokirov B.F. Jabrlanuvchi va guvohlarni himoya qilishning huquqiy va tashkiliy muammolari [Legal and organizational problems of victim and witness protection]. *Huquq – Law*, 2000, no. 2, pp. 51–52.
24. Astanova L.A. Teoreticheskiye osnovy okhrany praw lichnosti v ugolovnom protsesse i ikh realizatsiya v pravoprimenitel'noy deyatel'nosti [Theoretical foundations of the protection of individual rights in criminal proceedings and their implementation in law enforcement activities]. Tashkent, 1997, pp. 93–94.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.i.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.